

5-SINF O‘QUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Ochilova Parizod Najmiddin qizi

TOSHDU‘TAU O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 4-kurs talabasi

Ochilovaparizoda814@gmail.com

Tel: +998908721107

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi tahlil qilinadi. Kommunikativ kompetensiya tushunchasi, uning tarkibiy qismlari va ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, ona tili darslarida innovatsion yondashuvlar, interaktiv metodlar va texnologiyalardan foydalanish orqali o‘quvchilarning muloqot qobiliyatlarini shakllantirish usullari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: kommunikativ kompetensiya, ona tili, interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, o‘quvchilar, muloqot qobiliyatlari.

Abstract. This article analyzes the methodology for developing students' communicative competence. The concept of communicative competence, its components and importance are highlighted. Also, methods for developing students' communication skills through the use of innovative approaches, interactive methods and technologies in native language lessons are considered.

Keywords: communicative competence, native language, interactive methods, innovative technologies, students, communication skills.

Аннотация. В данной статье анализируется методология развития коммуникативной компетенции учащихся. Рассматриваются понятие коммуникативной компетенции, её компоненты и значение. Также анализируются методы развития коммуникативных навыков учащихся с использованием инновационных подходов, интерактивных методов и технологий на уроках родного языка.

Ключевые слова: коммуникативная компетентность, родной язык, интерактивные методы, инновационные технологии, студенты, коммуникативные навыки.

Kirish. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim-tarbiya sohasidagi strategik vazifalarning asosiy yo‘nalishi mustaqil fikr yurita oladigan, kasbiy kompetensiyalarga ega raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan. Shu bois, jamiyat va shaxs manfaatlari uchun zarur bo‘ladigan rivojlanish istiqbollarini aniq belgilash borasida “Ta’lim

va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirish" ustuvor vazifa sifatida qaralmoqda⁸⁰. Hozirgi rivojlangan ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat bilim olishi, balki o'z fikrini erkin, aniq va to'g'ri ifoda eta olishi ham muhim hisoblanadi. Ayniqsa, 5-sinf o'quvchilari uchun kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki bu yosh davrida o'quvchilarda muloqotga kirishish, savol berish, javob qaytarish hamda o'z fikrini boshqalarga yetkazish ko'nikmalari faol shakllanadi. O'quvchilar zamonaviy texnologiyalar va internet ta'sirida ulg'ayishmoqda. Buning bir necha ijobiy tomonlari bo'lganidek salbiy tomoni ham yo'q emas. Atrofdagilar bilan muloqot qilishiga ko'rinmas salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarda kommunikativ kompetensiya shakllantirish ularning ona tili va boshqa fanlardan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni egallashiga yordam beradi. Chunki o'quvchilar muloqot qilish natijasida dunyoni kengroq tushunadilar.

Muloqot, shubhasiz, jamiyatdagi insonlarning kundalik hayotidagi eng muhim jarayonlardan biridir. Etimologik jihatdan "communication" so'zi lotincha "kommunikativ" fe'lidan olingan bo'lib, "ko'pchilikka umumiy qilish", "baham ko'rish" ma'nolarini anglatadi. Zamonaviy ilmiy adabiyotlar va rivojlangan davlatlarda ta'lim natijalari nafaqat bilim, ko'nikma va malakalar orqali, balki shaxsning ta'lim jarayonida egallagan kompetentsiyalari orqali aniqlanishi ta'kidlanadi. Kompetensiya – bu o'quv jarayonining rejalashtirilgan maqsadi, usullari, texnologiyasi va bilim oluvchining malakasi asosida shakllanadi. "Kompetensiya" lotincha so'z bo'lib, "erishaman", "to'g'ri kelaman" degan ma'nolarni bildiradi⁸¹. Ushbu ta'riflarga asoslanib, kommunikativ kompetensiya samarali muloqot qilish qobiliyati deb ayta olamiz.

Kommunikativ kompetensiya – bu shaxsning turli kommunikativ vaziyatlarda samarali muloqot qilish qobiliyatidir. U quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- **Til kompetensiyasi:** Tilning grammatik, leksik va fonetik jihatlarini bilish va ulardan to'g'ri foydalanish.

- **Nutq kompetensiyasi:** O'z fikrlarini aniq va mantiqiy ifodalash qobiliyati.

- **Diskursiv kompetensiya:** Muloqot jarayonida matn va kontekstni tushunish va yaratish qobiliyati.

⁸⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

⁸¹ Педагогический словарь // Под. ред. В.И.Загвязинского, А.Ф.Закировой. – М.: Академия, 2008. – 337 с

- **Sotsiolingvistik kompetensiya:** Muloqotda ijtimoiy-madaniy me'yor va qoidalarga rioya qilish qobiliyati.

- **Strategik kompetensiya:** Muloqot jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun strategiyalardan foydalanish qobiliyati.

Ona tili darsligida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning ahamiyati yoritilgan bo'lib, unda o'quvchilarning til va nutq ko'nikmalarini shakllantirishda asosiy vositadir. Ushbu darslarda o'quvchilar nafaqat tilning grammatik qoidalarini o'rganadilar, balki o'z fikrlarini og'zaki va yozma shaklda ifodalashni, matnlarni tahlil qilishni va muloqotda ishtirok etishni o'rganadilar. Shu sababli, ona tili darslarida kommunikativ kompetensiya rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

O'quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda bir necha interaktiv metodlar samarali hisoblanadi. Masalan, turli xil vaziyatlarga mos dialoglar tashkil etish: O'quvchilar juftlikda ishlaydi va savol-javob shaklida dialog tuzadilar. Qisqa hikoya yozdirish: "Agar men olim bo'lsam..." mavzusida qisqa hikoya yozdirish. Rolli o'yinlar: O'quvchilar turli olimlarning rollarini bajarib, ularning ishlari haqida so'zlab berishadi. Masalan, biri biolog olimi bo'lsa, ikkinchisi fizik yoki kimyogar bo'lishi mumkin. O'quvchilar bir-birlari bilan suhbatlashib, o'z kashfiyotlari haqida gapirishadi. Ilmiy loyihalar tayyorlash: Har bir guruh ilmiy kashfiyot yoki olimlar haqida prezentatsiya tayyorlab, sinf oldida taqdim qiladi. Bunda muloqot va taqdimot ko'nikmalari shakllanadi. O'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish: "Agar men sehrGAR bo'lsam..." O'quvchilarga tasavvur qilish topshirig'i beriladi: "Agar siz sehrGAR bo'lsangiz, qaysi yo'nalishda ishlagan bo'lar edingiz?" Ular o'z g'oyalari haqida gapiradi va sinfdoshlari bilan muhokama qiladi. Ushbu metodlar orqali o'quvchilarning og'zaki va yozma nutq ko'nikmalari, tanqidiy fikrlash qobiliyati, ijodkorligi va muloqot madaniyati rivojlanadi. Bu metodlarni barchasini 5-sinf o'quvchilari uchun ham foydalansak bo'ladi. Bundan tashqari, quyidagi metodni 5-sinf o'quvchilari bilan o'tkazilsa yanada qiziqarliroq bo'ladi. Ushbu rasm orqali bir necha topshiriqlar berilsa bo'ladi. Masalan,

- rasm haqida o'z fikr mulohazalaringizni ayting.
- Partadoshingiz bilan rasmlardagi vaziyatlar asosida dialog tuzing.
- Matnni sinfdoshlaringiz bilan tahlil qiling.



Ushbu metod ham o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali usullardan biri hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda kommunikativ kompetensiya tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Jumladan, Canale va Swain (1980) kommunikativ kompetensiyani o‘quvchining muloqot jarayonida til birliklaridan maqsadga muvofiq foydalanish qobiliyati sifatida izohlaydi⁸². Canale va Swain (1980) tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ kompetensiya nazariyasida muloqot jarayonida til bilimlari bilan bir qatorda ularni amaliy vaziyatlarda to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llash muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlanadi. Olimlar kommunikativ kompetensiyani grammatik bilim, nutqning mantiqiyligi hamda muloqot vaziyatiga moslashish qobiliyatlari majmui sifatida izohlaydi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, o‘quvchi faqat til qoidalarini bilishi emas, balki ularni real muloqot jarayonida samarali qo‘llay olishi lozim. Vygotskiy (1984) esa o‘quvchilarda kommunikativ ko‘nikmalarni rivojlantirish ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog‘liq ekanini ta’kidlaydi⁸³. Olim fikriga ko‘ra, o‘quvchining tafakkuri va nutqi muloqot jarayonida, ya’ni kattalar va tengdoshlar bilan o‘zaro munosabat orqali rivojlanadi. Ayniqsa, o‘qituvchi tomonidan tashkil etilgan hamkorlikdagi faoliyat o‘quvchining rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, 5-sinf o‘quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda o‘qituvchi faqat bilim beruvchi emas, balki muloqot muhitini yaratuvchi shaxs sifatida faoliyat yuritishi lozim. O‘quvchilarni erkin fikr bildirishga undovchi savollar, muammoli vaziyatlar va jamoaviy ishlanmalar ularning nutqiy faolligini oshiradi hamda kommunikativ ko‘nikmalarini mustahkamlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, 5-sinf o‘quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish ta’lim jarayonining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki aynan shu bosqichda o‘quvchilarda muloqot qilish, o‘z fikrini erkin ifodalash, boshqalarni tinglash va nutq madaniyatiga amal qilish ko‘nikmalari shakllana boshlaydi. Ushbu ko‘nikmalar

⁸² Canale M., Swain M. *Theoretical Bases of Communicative Approaches*. — 1980

⁸³ Vygotskiy L.S. *Pedagogik psixologiya*. — Moskva, 1984.

keyingi ta'lim bosqichlarida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda dialogga asoslangan mashqlar, guruhli ishlar, rolli o'yinlar, hikoya tuzish va muammoli vaziyatlardan foydalanish samarali natija beradi. Ushbu usullar o'quvchilarning nutq faolligini oshirishga, dars jarayonida faol ishtirok etishiga va o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuningdek, metodlarni tanlashda mavzuning mazmuni, dars maqsadi va o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Bir xil metodni barcha mavzularga qo'llash kutilgan natijani bermasligi mumkin. Shu sababli o'qituvchi dars jarayonida turli usullardan o'rinli va maqsadga muvofiq foydalanishi zarur. Umuman olganda, 5-sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan usullarni tizimli va izchil qo'llash orqali o'quvchilarning nutqiy faolligi, muloqot madaniyati va ijtimoiy moslashuvchanligini rivojlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanov R. Pedagogik muloqot va uning samaradorligi. Toshkent, 2018.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>
3. Педагогический словарь // Под. ред. В.И.Загвязинского, А.Ф.Закировой. – М.: Академия, 2008. – 337с
4. Jalolov J. O'zbek tilini o'qitish metodikasi. Toshkent, 2012.
5. Mavlonova K. M. Ona tili. 5-sinf (II qism): darslik / K. M. Mavlonova, S. H. Qo'ldosheva, N. S. Hakimova, M. R. Siddiqov. – Toshkent: "Novda Edutainment", 2024. – 160 b.
6. Qunduzxon Husanboyeva, Roza Niyozmetova Adabiyot o'qitish metodikasi, Darslik – Toshkent: "Innovatsiya- Ziyo, 2022.
7. Canale M., Swain M. *Theoretical Bases of Communicative Approaches*. — 1980
8. Vygotskiy L.S. *Pedagogik psixologiya*. — Moskva, 1984